

**SHISHA IDISHLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI
OSHIRISH.**

**ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
СТЕКЛЯННОЙ ПОСУДЫ.**

IMPROVING THE EFFICIENCY OF THE USE OF GLASSWARE.

N.K. Jorabaeva – Muxtar Auezov nomli Qozog‘iston universiteti katta o‘qituvchisi

D.I. Quvondiqova - Jizzax politexnika instituti assistenti

N.K. Jorabaeva- Senior Lecturer of Mukhtar Auezov Kazakhstan University

D.I. Quvondikova -Assistant Professor of Jizzakh Polytechnic institute

Annotatsiya. Shisha maxsulotlari har qanday kimyoviy holatga chidamli bo‘lib, chirimaydi, zanglamaydi, har qanday agressiya holatga chidamli. Uning bunday kimyoviy turg‘unligi chiqindi sifatida tashlab yuborilgan har qanday shisha sinig‘i 1000 yillab oz xususiyatini yuqotmasligi bizdan kiyingi avlodga, tabiatni qanday xolatda tashlab ketayotganligimizdan dalolat beradi.

Kalit so‘zlar. Shisha, rang beruvchi oksidlar, tabiiy kvarts, glinozem, dala shpati

Аннотация. Изделия из стекла устойчивы к любым химическим условиям, не гниют, не ржавеют, устойчивы к любым агрессивным условиям. Тот факт, что любой осколок стекла, выброшенный в качестве отходов, не теряет своих свойств в течение 1000 лет, свидетельствует о том, в каком состоянии мы оставляем природу, от нас к следующему поколению.

Ключевые слова. Стекло, красящие оксиды, природный кварц, глинозем, полевопшпат

Annotation. Glass products are resistant to any chemical condition, do not rot, do not rust, are resistant to any aggressive condition. The fact that any glass

fracture, in which such a chemical stagnation of it was discarded as waste, does not infect its character for 1000 years, testifies to the generation we wear, how we are abandoning nature.

Keywords. Glass, coloring oxides, natural quartz, glynozem, field veneer

Hozirgi texnika – texnologiyalar va kimyo sanoati jadal rivojlanayotgan bir paytda yangi maxsulotlar ishlab chiqarish o‘zining afzalliklari bilan shisha maxsulotlaridan ustunligini ko‘rsatmoqda. Ishlab chiqarishning boshqa soxalari bilan birgalikda suyuq maxsulotlarni qadoqlash va saqlash jarayonlari ham katta yutuqlarga erishilmoqda.

Bular jumlasiga plastik, qog‘oz, alyumin idishlar misol bo‘lishi mumkin. Ular o‘zining ijobiy tomonlarini ko‘rsatdi, asrlar mobaynida foydalanib kelinayotgan, ekologik toza o‘zidan hech qanday zaharli moddalar chiqarmaydigan, qayta ishlash jarayoni iqtisodiy samarador bo‘lgan shisha idishlarni ishlab chiqarishdan siqib chiqarish holatlari kuzatilmoqda.

Shisha – ekologik toza, tabiiy xom ashyolar shixtasini (xom ashyolarning optimal aralashmasi) 1500-1600°C da eritib, eritilgani qoliblarda qoliblash usulida olingan maxsulotlarga aytiladi. Undan nafaqat oziq – ovqat sanoati balki meditsina, kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi va boshqa ko‘plab tarmoqlarda sifatli va ekologik toza xom ashyo sifatida foydalanilsa bo‘ladi.

Uning asosiy xom ashyolari jumlasiga tabiiy kvarts SiO_2 , glinozem Al_2O_3 , dala shpati Fe_2O_3 va sodalar bo‘lib ular shisha tarkibidagi kimyoviy elementlarni tarkibini tashkil etadi.

Shishaning asosiy kimyoviy tarkibida SiO_2 -72, Al_2O_3 -2, Fe_2O_3 -0.2 % dan ko‘p bo‘lmagan xolda, K_2O ± 2 %ni tashkil etgan xolda ular shishaga kerakli bo‘lgan fizik – mexanik xossalarni beradi. Shisha idishlarga rang berish maqsadida ularning tarkibiga har xil rang beruvchi oksidlar qo‘shiladi. Masalan, sut rangli shisha uchun 3 foiz bariy oksidi (B_2O_3), malla rang uchun 12 foiz rux oksidi (Zn_2O) va boshqa moddalar qo‘shiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 2-fevral kuni chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo‘yicha 2022-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishida maishiy chiqindi to‘plash qamrovini **95 %**ga, qayta ishlash hajmini **40 %**ga yetkazish vazifasi qo‘yilgan.

Katta xarajatlar evaziga tayyorlangan shisha idishlarning xozirgi kundagi ahvoli qanday, ularni ishlatish qanday xolatda, ularning keyingi ahvoli nima bilan tugamoqda? Bu savollarga javob hozirgi kundagi o‘ta achinarli bo‘lib, atrof muhitga katta zarar yetkazmoqda. Shisha maxsulotlari har qanday kimyoviy holatga chidamli bo‘lib, chirimaydi, zanglamaydi, har qanday agressiya holatga chidamli. Uning bunday kimyoviy turg‘unligi chiqindi sifatida tashlab yuborilgan har qanday shisha sinig‘i **1000** yillab o‘z xususiyatini yuqotmasligi bizdan kiyingi avlodga, tabiatni qanday xolatda tashlab ketayotganligimizdan dalolat beradi. Bu turdagi chiqindilar tuproq ostida va ustida xatto plastik va alyumin mahsulotlardan ham ko‘p yillar davomida chirydi. Plastik mahsulotlar va alyumin mahsulotlariga – **500** yil kerak. _

Har bir uyning uy bekalari biz bilan sizga qish mavsumi uchun mazzali konserva maxsulotlari shisha idishlarda, bankalarda tayyorlab, tabiiy vitaminli maxsulotlar kamligida dasturxonimizni tayyorlagan konservasi bilan siylashadi va mazzali tayyorlagan shirinligi bilan g‘ururlanib shisha bankalarni bir necha o‘n yillab qayta foydalanishadi.

Uy beklarimiz o‘z shisha bankalaridan va idishlaridan bir necha marotaba qayta foydalanayotgan bir paytda, katta ishlab chiqarish tashkilotlarimiz o‘zining firma tamg‘asi tushurilgan shisha idishlaridan qaytadan foydalanmasliklari kerak! Har bir chiqindixonada, uylarda, bog‘larda, suv xavzalarida, tog‘larda va boshqa jamoat joylarda shisha idishlar, ularning chiqindi siniqlari shahar va qishloq tabiati xusnini buzib kelmoqda. Hayvonlar va insonlarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etib, ularni ishga yaroqsizlik holiga

keltirib jaroxat yetkazmoqda. Bular esa o‘z navbatida tabiatning jonli va jonsiz ne‘matlari va jamiytimizning mehnat resurslarining kamayishi olib keladi. Ba’zi hollarda esa hozirgi katta ekologik muommolarga aylanayotgan chiqindilar turiga kirib qolmoqda. Bu esa yuqorida aytilganidek tabiatda tashqi muhit ta’siri ostida ham ko‘plab yillar davomida chirimaydigan va uzoq yillar davomida ona tabiatimizga, tuproqqa o‘z zararini keltiradigan manbaga aylanmoqda va ishlab chiqarish samaradorligini pasayishiga, ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiyotimizga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Yuqorida keltirilganlardan kerakli xulosa chiqarib, shisha idishlardan foydalanayotgan yoshu-qarilar shisha idishlardan foydalangandan so‘ng, ularni butunligini buzmasdan, belgilangan joylarga tashlash kerakligini esda tutishlari, mutasaddi tashkilotlar, ishlab chiqarish tashkilotlari esa shisha idishlarni aholidan yig‘ib olish va ulardan qayta foydalanish chora tadbirlarini ishlab chiqish fursati kelganligini anglab yetishlari kerakligini bildirmoqda. Qayta foydalanishga yaroqsiz shisha buyumlarini qayta ishlab chiqarish chora tadbirlari tuzish, olimlar va tadbirkorlar oldiga ulardan foydalanish yo‘llarini taklif etishni so‘rash kerak bo‘ladi deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amindjanova M., Sayko E., Keramika, steklo i farfor v Sredney Azii, T., 1968;
2. Artamonova M.V., Aslanova M.S., Bujinskiy I. M. i dr., Ximicheskaya texnologiya stekla i sitallov, M., 1983;
3. Abdurazakov A. A., Bezborodov M.A., Srednevekovme stekla Sredney Azii, T., 1966.
4. I.X.Ayubova M.N.Musayev I.A.Jamgaryan “Atrof muhit sifat analizi va monitoringi” Toshkent-2011 y

5. Израел. Ю. А. Экология и контрол состояния природной среда L.,
Gidrometeoizdat, 1994.